

## Islomda Bolalar Huquqi

G'aniyev Murodiljon

1-kurs Magistranti, O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi

**Annatsiya:** Ushbu maqolada islom dinida voyaga yetmagan bolalarning huquqlari, shu jumladan ularga munosib ota-ona tanlash, chiroyli ism qo'yish, odobli-axloqli qilib tarbiyalash, ularni jamiyat uchun kerakli shaxslar qilib tarbiyalashda islom dini ko'rsatmalari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** islom dini, bola huquqlari, ota-ona, jamiyat.

Islomda farzandlarning huquqlari rioya qilingan bo'lib, bular ularning ota-onalari yoki yaqin qarindoshlari, yashayotgan jamiyatlariga vazifa qilib yuklatilgan. Bu haqlarni ado etish vojib bo'lib, unga amal qilmoqlik majburiydir.

Farzandlarning qanday huquqlari bor? Ulamolarimiz bu savolga javob tarzida quyidagilarni zikr qiladilar:

**1.Nasl-nasabi, farzandga munosib ota va ona tanlash majburiyati, emizish, munosib ism tanlash, yangi tug'ilgan bolaning qulog'iga azon va takbir aytish ota-onaning burchi, bolaning haqqidir.**

Bola tug'ilishi bilan uning bir muncha haqlari ham tug'iladi. O'sha haqlarning eng asosiylaridan biri poknasab bo'lish haqqidir.

Nikohning asl maqsadlaridan biri ham nasabni saqlashdir. Busiz oila ham, ota-onalik ham, bolalik ham, qarindosh-urug'lik ham, jamiyat ham bo'lmaydi. Farzandning ota-onasi nikohdan o'tgan, xalol-pok yashagandagina nasabi aniq va pok bo'ladi. "Nasab" so'zi lug'atda "nisbat berish", "mansublik" ma'nolarini anglatadi.

Shar'iy istilohda esa, "Yaqinlik-ikki insonning tug'ilishda mushtaraklik sababidan bog'lanishi"dir. Nasab ota yoki ona tarafidan bo'lishi mumkin. Nasab eng muhim va o'ta nozik ijtimoiy hukmlardan biridir. Zotan, inson aynan nasab orqali ota-onasini, bobo-momosini, amki-tog'asini, amma-xolasini va boshqa qarindoshlarini taniydi va ular bilan aloqada bo'ladi.

Islom sha'riyatida nasabga alohida e'tibor berilishi unga bog'liq o'ta muhim xaqar borligi uchundir:

a) Nasabni yaxshi aniqlash kelajakda mahramlar orasida nikohlanishdek katta gunohning oldini oladi. Agar bu ish bo'lmasa, odam bilmasdan, o'zining qarindoshi bilan oila qurib qo'yishi va buning oqibatida ko'plab zarar tortishi va gunohga qolishi bor.

b) Nasabning sobit bo'lishi ota-ona xaqarining ham sobit bo'lishiga xizmat qiladi. Agar nasab aniqlanmasa, ba'zi xolatlarda inson uchun eng muhim ishlardan bo'lgan ota-ona xaqarining poymol bo'lishi turgan gap.

v) Nasabga e'tibor berish qarindosh-urug'lariga e'tibor berish va ularga silai rahm qilishni yo'lga qo'yish deganidir.

Abu Xurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinidi:

Nabiy sollallohu alayhi vasallam:

“Nasablaringizni o‘rganing, u bilan silai rahm qilasiz. Zotan, silai rahm ahliga muhabbat, molning ziyodasi asarini ortdan qoldirishdir”, -dedilar”.

Termiziy rivoyat qilgan.

Har bir kishi nasabini, ya’ni ajdodlarini, qarindosh-urug‘larini yaxshi tanib olishi lozim.

Shariat ta’limotlari bo‘yicha, ota-onaning farzand oldidagi burchlari oila qurishdan avval – umir yo‘ldoshini tanlash paytida boshlanadi. Har bir shaxs o‘zining bo‘lajak farzandi uchun munosib ota-ona tanlash majburiyatidadir.

## **2. Aqiyqa qilish ham ota-onaning burchi va bolalarning xaqlaridandir, yangi tug‘ilgan bolaning tanglayini ko‘tarish ham ota-onaning burchi va bolalarning haqqidir.**

Farzand ne‘mati Alloh taoloning bandalariga son-sanoqsiz ne‘matlari ichida eng ulug‘ ne‘matlardan biridir. Bu ne‘matni ulug‘ligini, uni Alloh taolodan boshqa zot bera olmasligini to‘liq anglab yetish uchun befarzandlarning holiga nazar solish kerak. Ana shunda inson farzand ne‘mati qanchalar ulug‘ ne‘mat ekanini tushinadi.

Katta-kichik har bir ne‘matga yetganda ne‘mat beruvchiga shukrona keltirish insonning sof tabiatida mavjud haqiqatdir. Shukr esa, ikki qismdan iboratdir.

Birinchisi ma’naviy shukr bo‘lib, ne‘mat beruvchining sha’niga maqtov so‘zlarini aytishdir.

Ikkinchisi amaliy shukr bo‘lib, ne‘matni ne‘mat beruvchini rozi qiladigan tarzda tasarruf qilishdir.

Farzand ne‘matiga ma’naviy shukr qilish uni bergan Alloh taologa hamd va shukr so‘zlarini til bilan aytib, dil bilan tasdiqlashdan iboratdir.

Farzand ne‘matiga amaliy shukr o‘sha farzandni uni bergan Alloh taologa iymon keltiradigan, ibodat qiladigan solih banda qilib o‘stirishdan iboratdir. Buning uchun esa, eng avvalo, Islomda ota-onaning farzand oldidagi burchlari sifatida belgilangan amallarni ixlos bilan amalga oshirish kerak.

Farzand tug‘ilishi munosabati ila aqiyqa qilish ham o‘sha burchlardan biri ekanini avval aytib o‘tdik. Endi esa, har bir ota-ona ularga farzandni Alloh taolodan boshqa hech qanday zot bera olmasligini chuqur his qilishlari zarur ekanini ta’kidlamog‘chimiz. Bir bolaning sog‘-salomat tug‘ilishi butun insoniyat uchun Allohning tengsiz lutfi karami, in’omi va marhamati ekanini anglab yetishimiz uchun Qur’oni Karimgm bir nazar solishimizning o‘zi yetarli.

Alloh taolo “Sho‘ro” surasida shunday deb marhamat qiladi:

**“Osmonlaru yerning mulki Allohnikidir.(U zot) xohlagan narsasini yaratur. (U zot) xohlagan kishiga qiz hadya etur va xohlagan kishiga o‘g‘illar hadya etur. Yoki ularni juftlab – o‘g‘il-qiz qilib berur va xohlagan kishisini tug‘mas qilur. Albatta, U Aliym va Qodiyrdir”** (“Sho‘ro” surasi 49-50-oyatlar).

Insonga hamma narsani faqatgina Alloh taoloning O‘zi berishining yorqin namunasi farzand masalasida ko‘rinadi. Ayni shu masalada inson o‘zini ojizligini his etadi. O‘z xohishiga ko‘ra biron narsani bor qila olmasligini, balki doimo Alloh taoloning madadi va inoyatiga muhtoj bo‘lib turishini anglab yetadi.

## **3. Bolani qaromog‘iga olish ham ota-ona yoki yaqin qarindoshlarning ishi, bolalarning haqqidir, valiylik ota-ona vaqarindoshlarning burchi va yosh bolalarning haqqidir.**

Bu ish arab tilida “hizona” deyilib, “quchog‘iga olish” ma’nosini bildiradi. Shariat istilohida esa ota va ona ajrashgandan keyin go‘dak bolani o‘z qaromog‘iga olish va tarbiya qilishga aytiladi.

Onaga majburlanmasdan beriladi. Taloq qilinganmi yoki boshqacha bo‘lganmi, baribir.

Ya’ni ota-onaning nima sababdan va qanday holatda ajrashganlaridan qat’i nazar, onasi istab tursa, bola unga beriladi

Abdulloh ibn Amr roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Bir ayol:

“Ey Allohning Rasuli, mana bu o‘g‘lim uchun qornim joy bo‘lgan edi, ikki ko‘kragim suvidish edi, quchog‘im muhofazachi bo‘lgan edi. Endi otasi meni taloq qilib, uni mendan tortib olmoqchi”, dedi.

Shunda Rosululloh sallollohu alayhi vasallam unga:

“Modomiki turmush qilmasang, sen unga haqliroqsan”, dedilar”.

Abu Dovud, Ahmad va Hokim rivoyat qilganlar. Hokim sahih degan.

Agar ayol bolani olishni istamasa, u majburlanmaydi. Illo, undan boshqa shaxs bo‘lmasa yoki bola undan o‘zgaga ko‘nmasa, majburlanadi.

Bolani qaramog‘iga olishga haqdorlarning onadan keyingi tartibi quyidagicha:

So‘ng onaning onasi, agar yuqorilasa ham. Keyin otasi onasi, ota va ona bir opasi, ona bir opasi, ota bir opasi. So‘ngra shu tartibda xolasi va ammasi.

#### **4. Nafaqa otaning burchi, bolalarning haqqidir, bolaga mehribonlik ko‘rsatish ota-onaning vazifasi va bolaning haqqidir, bolalar orasida adolat qilish ham ota-onaning vazifasi va bolalarning haqqilari.**

Bolalarning nafaqasi, ularni oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy

bilan ta‘min etish otaning burchidir. Bu narsalar halol-pok bo‘lishi matlubdir. Harom kasb bilan topilgan taomni yegan murg‘ak vujining kelajakda halol, odobli kishi bo‘lib yetishganini hali hech kim ko‘rmagan.

Farzandlarida ahloqsizlik, odobsizlik, qonun buzishlar ildizini ularning halqumi buzilganligidan izlash kerak bo‘ladi. Agar halqumingiz poklanmas ekan, bor mehringizni, topgan-tutganingizni sarflab, tarbiyalagan bolangiz ota-onaga bemehr, oqqadar, osiy bo‘lib ulg‘ayadi.

Ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rosululloh sollollohu alayhi vasallamning huzurlarida “Ey iymon keltirganlar, yer yuzidagi narsalardan halol-poklaridan yenglar” oyati tilovat qilindi. Shunda Sa‘d ibn Abu Vaqqos turib:

Yo Rosululloh, Allohga duo qiling, meni duosi qabul bo‘ladiganlardan qilsin”, - dedi.

Shunda Rosululloh sollollohu alayhi vasallam:

“Ey Sa‘d, taomingni pok qilgin, duosi qabul bo‘ladiganlardan bo‘lasan. Muhammadning joni qo‘lida bo‘lgan zotga qasamki, albatta, banda bir luqmani qorniga tashlaydi va undan amali qirq kun qabul qilinmaydi. Qay bandaning go‘shiti xaromdan o‘sgan bo‘lsa, olov unga loyiqroqdir”, - dedilar”.

Taboroniy rivoyat qilgan. Har kim o‘zi xulosa chiqarib olaversin. O‘zi nima tanovul qilayotganiga, ahli ayoliga nima berayotganiga, murg‘ak go‘daklarini nima bilan taomlantirayotganiga bir nazar solsin.

Faqir yosh bolaning nafaqasi otasiga vojib bo‘ladi

#### **5. Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir, balog‘atga yetgan farzandni oilali qilib qo‘yish ota-onaning burchi va bolalarning haqqidir.**

“Tarbiya” so‘zi arabcha “robba” fe‘lidan olingan bo‘lib, o‘stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma‘nolarini bildiradi.

Musulmon ulamolari “tarbiya”ni bir necha xil ta‘rif qilganlar.

Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta‘riflaydi:

“Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga yetkazishdir”.

Rog‘ib Afsahoniy tarbiyani quyidagicha ta‘rif qiladi:

“Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o‘tkaza borib, batamomlik nuqtasiga yetkazishdir. Tarbiyaning ma’nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg‘unlik hamda muvozanat ila o‘stirishdir”.

Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas’uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba’zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga yetadi. Ammo tarbiya mas’uliyati bardavom bo‘ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne’matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas’uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi. Amaliy shukr – berilgan ne’matni ne’mat beruvchi zotni rozi qiladigan tarzda tasarruf qilish bilan bo‘ladi. Binobarin, farzand ne’matiga amaliy shukr qilish o‘sha farzandni Alloh taolaga itoat qiladigan banda qilib tarbiyalash bilan yuzaga chiqadi.

Alloh taolo bu dunyodagi narsalarni sababiyat qonuni ila bir-biriga bog‘lab qo‘ygan. Och inson taom yemasa, qorni to‘ymaydi. Ota-ona qo‘shilmasa, bola tug‘ilmaydi. Huddi shuningdek, tarbiya bo‘lmasa, inson tarbiya ko‘rgan bo‘lib voyaga yetmaydi.

Shuning uchun ham islomda bola tarbiyasiga alohida e’tibor beriladi. Bola tarbiyasi bo‘yicha mutaxassislarimiz: “Bolaning tarbiyasini tug‘ilishi bilan boshlash kerak”, deyishadi.

1. Tarbiyaning bir qismi bolaga odob o‘rgatishdir.

Bizning tilimizda “odob” tarzida talaffuz qilinishiga odatlanib qolingan arabcha “adab” so‘zi, aslida, “ma’daba” o‘zagidan olingan. “Ma’daba” so‘zi odamlar da’vat qilingan ziyofatni aytiladi. Odob ham odamlar doimo da’vat qilinadigan ma’naviy “ma’daba” – ziyofat bo‘lganligi uchun shu nomni olgan.

Abu Muhammad “Kitobul Vohiy” nomli asarlarida: “Odob odamlarni maqtalgan narsalarga chaqirgani uchun “odob” deb nomlangan”, - deyilar.

Abu Zayd rohmatallohi alayh: “Odob fazilatlaridan biriga eltuvchi yaxshi urinishga ishlatiladigan ismdir”, - deganlar.

Odobning ta’rifida quyidagiga o‘xshash gaplar ham kelgan:

“Maqtovga sazovor so‘z va amalni qilish odobdir”.

“Karamli axloqlarni ushlab odobdir”.

“O‘zingdan kattani ulug‘lab, o‘zingdan kichikka mehr ko‘rsatishing odobdir”.

Bu va shunga o‘xshash ta’riflar to‘planganda Islomda ko‘zlangan “odob” ta’rifi yuzaga keladi.

Xozirgi kunda g‘arb madaniyati ta’sirida “odob”- ni madaniyat deyish ham joriy bo‘lgan. Misol uchun, “ovqatlanish odobi” deyish o‘rniga “ovqatlanish madaniyati” deyiladi.

Odob masalasini insoniyat tarixida to‘laqonli ravishda Islom boshlagan, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.